

## MANIPULYATSIYA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMI SIFATIDA

Fayzulloyeva Mohinur Sa'dullo qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada manipulyatsiya haqida umumiy tushuncha hamda insonlarni manipulyatsion ta'sirdan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi nazariy va amaliy jarayonlar xususida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** manipulyatsiya, stress, his-tuyg'u, xulq-atvor, qat'iyatlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, o'zini tuta bilish, dominantlik, ong, motiv.

### KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy taqmoqlar ta'siriga tushganmiz. Har birimiz manipulyatsiyada ham manipulyator sifatida, ham manipulyatsiya qurboni sifatida bir necha bor qatnashganmiz. Oxirgi rol har doim yoqimsiz tajribalar bilan bog'liq. Ko'pincha biz noxush tuyg'ulardan (qo'rquv, uyat, aybdorlik va hokazo) qochish yoki kimningdir roziligini olish, obro'-e'tiborimizni oshirish, kimningdir ko'ziga yaxshiroq ko'rinish uchun manipulyatsiyaga berilib ketamiz. Natijadan norozilik ham yoqimsiz tajribalarni keltirib chiqaradi.

Inson bir vaqtning o'zida ikki parallel olamda yashaydi: real hayotda va tasavvurlar dunyosida. Shunisi qiziqki, insonning aynan xayoliy dunyosiga tasharidan osonlikcha ta'sir ko'rsatish mumkin. Muhimi shundaki, bu ta'sir doim yashirin xarakterga ega bo'lib, insonning o'zi ko'pincha buni payqamaydi. Chunki bu jarayonni manipulyatsiya mexanizmi boshqaradi. Buni hayotiy misollar yordamida izohlaymiz: Zotan, manipulyatsiya bu ong ustidan hukmdorlik o'rnatish bo'lib, unda inson ruhiyati, xatti -harakatlari va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatiladi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida qo'llanilishi nuqtai nazardan, manipulyatsiyani inson tafakkuri ustidan nazorat o'rnatish deya baholash mumkin. Manipulyatsiyaning muhim jihatlari biri shundaki, u orqali obyektning xatti harakatlarini dasturlash mumkin. Manipulyator faqat insonning aynan ruhiy dunyosini mo'ljalga oladi.

### ASOSIY QISM

Shaxs psixologiyasi juda murakkab, uning muhim qismini xayolot olami tashkil qiladi. Darhaqiqat odam bir vaqtning o'zida ikki qarma-qarshi olamda yashaydi: real hayotda va hayolan tasavvurlar dunyosida. Ana shu, aynan shaxsning xayoliy dunyosiga tashqaridan osonlikcha ta'sir ko'rsatish mumkin. Aniqrog'i bu ta'sir doim yashirin xarakterga ega bo'lib, insonning o'zi buni payqamaydi. Bu jarayonni manipulyatsiya mexanizmi boshqaradi.

«Manipulyatsiya – Aldam-qaldam, hiyla, nayrang, boshqa odamda, unung dolzarb istaklariga mos kelmaydigan boshqa maqsadlarni sezdirmay ustalik bilan yuzaga keltirishdan iborat psixologik ta'sir etish usuli, qo'l yoki ikkala qo'lning ma'lum bir vazifani bajarish maqsadidagi harakati.. Ongni manipulyatsiya qilish - bu odamlarning xatti-harakatlarini dasturlash orqali ularga ta'sir qilish, hukmronlik qilish va irodasini susaytirish usullaridan biridir.

Bu ta'sir shaxsning ruhiy tuzilmalariga qaratilgan bo'lib, yashirin tarzda amalga oshiriladi va odamlarning fikri, motivlari va maqsadlarini ma'lum bir guruh odamlar uchun zarur bo'lgan yo'nalishda o'zgartirishga qaratilgan. Bunday holda, manipulyatsiyaning maqsadi mustaqillik, qarorlar yoki harakatlarning mustaqilligi illyuziyasini saqlab qolgan holda, o'zining haqiqiy niyatlarini yashirish, boshqa shaxsni muayyan harakatlarni amalga oshirishga undash, qimmatli munosabatlar, g'oyalar va fikrlarni o'zgartirish va hokazo. Boshqacha qilib aytganda, odamni o'zi istamagan ishni qilishga, o'zi orzu qilgan narsadan qaytishga undash, shu bilan birga unda o'z ixtiyori bilan harakat qilishga ishonch hosil qilish.

Manipulyatsiya - bu psixologik ta'sir turlaridan biri bo'lib, uning malakali bajarilishi inson uchun sezilmaydigan kayfiyat va reaksiyalarning faollashishiga olib keladi. Sub'yektning xatti-harakatini manipulyatsiya qilish orqali siz ko'pincha unga xos bo'lmagan reaksiyani faollashtirasiz. Uning kutilgan va rejalashtirilgan xatti-harakatlari sizning samarali, ammo yashirin manipulyatsiyangiz natijasida o'zgartiriladi.

Oddiy qilib aytganda, manipulyatsiya boshqa sub'ektning xatti-harakati va hissiy holatini manipulyator uchun zarur bo'lgan reaksiyani qo'zg'atish orqali sezilmas nazorat qilishdir. Ta'sirni boshqaradigan tashabbuskor manipulyator, ta'sirni qabul qiluvchisi esa jabrlanuvchi deb ataladi. Biroq, manipulyatsiya - bu oson san'at emasligini tushunish juda muhim, unga beparvo munosabat nafaqat sizning manipulyatsiyangizni samarasiz qiladi, balki sizni ommaviy ayblash va oldingi barcha shaxslararo aloqalarni yo'q qilish xavfiga duchor qiladi. Manipulyatsiyani shaxsning qo'g'irchog'ini boshqarish bilan solishtirish mumkin: tashqaridan u mustaqil harakat qilayotganga o'xshaydi, lekin bu illyuzor in'ikos, chunki uning barcha harakatlari iplarni mohirlik bilan tortib oladigan odamning xohishiga bog'liq. Shunday qilib, muloqot jarayonida: manipulyator o'z suhbatdoshining xatti-harakatlarini mohirona nazorat qiladi. Bu holatda "iplar" rolida his-tuyg'ular harakat qiladi.

Shaxsga ta'sir manipulyativ deb tasniflanadi, agar: Bu psixologik ta'sir bo'lsa Manipulyasiya yo'naltirilgan shaxs maqsadga erishish vositasi sifatida qaralsa Ta'sir yashirin xarakterga ega bo'lsa Ta'sir ma'lum bir mahorat bilan amalga oshirilsa Oxirgi ikkita shart manipulyatsiya ob'ekti uchun harakatlarning mustaqilligi illyuziyasini yaratadi. Manipulyativ xulq-atvor - bu boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishga qaratilgan, manipulyatsiya usullaridan foydalangan holda, istalgan narsaga erishish zarur bo'lganda yuzaga keladigan maxsus insoniy xatti-harakatlar. Manipulyativ xulq-atvorning mohiyati odamda uning haqiqiy istaklari bilan mos kelmaydigan niyatlarni uyg'otish, uni manipulyator manfaatlarini ko'zlab harakat qilishga undashdir.

#### XULOSA

Baxtli va muvaffaqiyatli kelajakni qurish manipulyatsiya bilan bog'liq emas, manipulyatsiya qisqa muddatda imkoniyatlarni kuchaytirishni talab qiladi. Muntazam manipulyativ boshqarilish natijasida insonda ishonchsizlik va norozilik madaniyatini keltirib chiqirishi mumkin. Aksincha, shaxslarga ozodlik berish o'zlariga egalik qilishlari uchun zarur vositalar va yordam berish orqali ijobiy xulq-atvorga erishib, o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Hozirgi zamon psixologlari manipulyativ xizmat, uning salbiy va ijobiy tomonlarini anglab, yangicha zamonda yangicha yondashuvlar orqali xizmat ko'rsatsalar, xalq uchun, jamiyat uchun foydali bo'lgan yanada mazmunli natijalarga

erishadilar. Manipulyativ mexanizmlar axborot urushlarining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani, har bir rivojlangan mamlakatdagi psixologlar oldidagi muhim vazifa ya'ni ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishini taqozo qilmoqda.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Mohlaroyim Qayumova "Manipulyatsiya yoxud ijtimoiy fikr qanday boshqariladi?". (Manba: Kun.uz)-2019.
- 2."Manipulyatsiya" (Oyna.uz.<https://oyina.uz/uz/teahause/973>).
- 3.Fischer, Alexandr / christian Illies. „Modulatsiyalangan hislar: manipulyatsiyaning yoqimli yakunlari modeli“, Falsafiy so'rovlar IV/2, 25-44 (2018).
- 4.Bereczkei, Tamás. Machiavellianism The Psychology of Manipulation, First, London: Taylor and Francis Group, 2017.